

SURXON VOHASI TOG‘LI QISHLOQLARI AHOLISI BOG‘DORCHILIGINING TARIXIY VA XO‘JALIK-MADANIY XUSUSIYATLARI

Amirqulov Muhiddin G‘ulomovich
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
 Tarix va falsafa kafedrası tayanch doktoranti
 amirkulovmuhiddin@gmail.com
 UDK: 39/394:308
<https://orcid.org/0009-0008-7605-276X>*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxon vohasi xalq xo‘jaligida bog‘dorchilik xo‘jaligining tutgan o‘rni, voha bog‘dorchiligining xo‘jalik-madaniy tiplari, voha hududida, ayniqsa vohaning tog‘li hududlarida bog‘dorchilikning tashkil etilishi, ekiladigan asosiy daraxt navlari, bog‘ yaratish agrotexnikasi hamda voha aholisining bog‘dorchilikdagi tarixiy tajribasi, shuningdek, Surxon vohasining shimoliy mintaqasi tog‘ qishloqlari aholisining uzumchilik bilan bog‘liq tajribalari, tabiiy iqlim sharoitining bog‘dorchilikka bo‘lgan salbiy ta‘siri natijasida hosildorlikning kamayishi kabi masalalar atroflicha yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: Surxon vohasi, bog‘dorchilik, meva, uzumchilik, mayiz qilish, qishloq, daraxt, ko‘chat, urug‘, tog‘li hududlar.

Аннотация: В данной статье представлена попытка всесторонне осветить такие вопросы, как роль садоводства в народном хозяйстве Сурханского оазиса, хозяйственно-культурные типы садоводства оазиса, организация садоводства на территории оазиса, особенно в горных районах оазиса, основные сорта посаженных деревьев, агротехника создания садов и исторический опыт садоводства населения оазиса, а также опыт жителей горных сел северного региона Сурханского оазиса, связанный с виноградарством, снижение урожайности в результате негативного влияния природно-климатических условий на садоводство.

Ключевые слова: Сурханский оазис, садоводство, плодородство, виноградарство, изюм, село, дерево, саженец, семена, горные районы.

Abstract: This article attempts to provide a comprehensive coverage of the role of

horticulture in the national economy of the Surkhan oasis, the economic and cultural types of oasis horticulture, the organization of horticulture within the oasis, especially in the mountainous regions of the oasis, the main tree varieties planted, the agrotechnics of orchard creation, and the historical experience of the oasis population in horticulture, as well as the experience of the population of mountain villages in the northern region of the Surkhan oasis related to viticulture, and issues such as the decrease in yield resulting from the negative impact of natural and climatic conditions on horticulture.

Keywords: Surkhan oasis, horticulture, fruit, viticulture, raisin production, village, tree, sapling, seed, mountainous areas.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). O‘zbekiston umumiy yer maydonining 20,5 foizi tog‘ va tog‘ oldi tashkil etadi[1]. Mamlakatimizning ushbu mintaqalarida yashovchi aholining kundalik mashg‘ulotlarida asosan, chorvachilik va dehqonchilik birga bog‘dorchilik ham muhim o‘rin egallab, bog‘dorchilik bilan bog‘liq tarixiy tajribasi shakllangan.

Hozirgi kunda butun dunyoda iqlim o‘zgarishi va suv resurslarining tobora cheklanib borishi natijasida aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan, mevalar bilan ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bunda bog‘dorchilikni yanada rivojlantirish, intensiv bog‘lar yaratish, turli xil mevali daraxtlarining yangi navlarini yaratish hamda suv tejamliligini oshirish kabi jihatlariga alohida e‘tibor berilmoqda. Mamlakatimizda, jumladan, Surxon vohasida ham xalq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan bog‘dorchilik xo‘jaligini

rivojlantirish hamda voha aholisining bog'dorchilik sohasidagi tarixiy tajribasini o'rgangan holda amaliyotga joriy etish voha qishloq xo'jaligi sohasida dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'zbek xalqining ajdodlari qadimdan mavjud tabiiy sharoitga moslashib o'ziga xos xo'jalik-madaniy tiplarni yaratgan. Surxon vohasida sun'iy sug'orishga asoslangan o'troq dehqonchilik, tog' va tog'oldi g'allachiligi, bog'dorchilik, uzumchilik, chorvachilik hamda an'anaviy chorvachilikni dehqonchilik bilan qo'shib olib borgan yarim ko'chmanchi va yarim o'troq aholi xo'jaligi turli tabiiy-geografik sharoitga qarab shakllangan[2].

Vohaning tog'li hududlarida aholi qolgan hududlardan farqli ravishda chorvachilik hamda bog'dorchilik bilan faol shug'ullanishgan. Bog'dorchilik voha qishloq xo'jaligida asosiy tarmoqlardan biri hisoblanadi.

1840-yillarda Buxoro amirligida bo'lgan rus sayyohi N.V.Xanikov qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i bog'dorchilikdir deb ta'kidlab quyidagi so'zlarni qayd qilgan: "Bog'larida kumushrang terakdan boshqa birona mevasiz daraxtni uchratmadim. Bog'larda uzum, anjir, o'rik, olma, nok, olcha, jiyda kabi daraxtlar o'sadi"[3].

XX asrning 20-yillarida Sovet hukumati tomonidan vohada bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. 1927-yilda 78148 desyatina yer bog' va uzumchilik uchun ajratilgan bo'lsa, 1929-yilga kelib 90 ming desyatini tashkil etgan[4]. 1926-yilda Surxon vohasi yerlarida agrotexnika ishlarini olib borish maqsadida 4 ta agromarkazlar tashkil etiladi[5]. Ushbu agromarkazlarning asosiy vazifasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish borasida voha dehqonlari va bog'bonlariga zarur tavsiyalar berish, ekinlar va bog'lardagi daraxtlarning holatini tekshirib, aniqlangan kasalliklar va ekinlarga salbiy ta'sir ko'rsatgan omillarni bartaraf etishga ko'maklashgan. Lekin vohaning ko'pgina tumanlarida agromarkazlar mavjud bo'lmagan va mavjudlari ham asosan markazlarga yaqin

joylashganligi sababli kengroq hududlarni qamrab olish imkoniyatiga ega bo'lmagan. Natijada, hosilni yetishtirish bilan bog'liq jarayonlarda yuzaga keladigan salbiy holatlarning oldini olishda voha aholisi o'zlarining tarixiy tajribasiga tayangan holda ish olib borishgan.

Vohaning tog'li hududlarida aholi asosan soylar va buloqlar bo'yida joylashganligi sababli dehqonchilik qilish nisbatan qiyin kechgan. Shuningdek, ushbu hududlarda sug'oriladigan yerlar kam edi, lalmi ekinlarning ayrim turlari uchun ham noqulay bo'lgan[5]. Shu sababli tog'li hududlarda joylashgan qishloqlar aholisi asosan bog'dorchilik bilan shug'ullangan. Bog'dorchilik bilan shug'ullanadigan tog'li qishloqlar aholisi bog'-rog'larni xush ko'rganligi sababli qishloqlar nomlari ham bevosita -bog', -li va -zor o'zaklari qo'shilgan holda nomlangan. Masalan, Zarabog', Qorabog', Chilonzor, Novbog', Jiydali va O'rikzor kabi qishloq nomlarini misol keltirish mumkin.

Surxon vohasida olma, o'rik, behi, nok, olxo'ri, gilos, shaftoli, tut, anjir va boshqa mevali daraxtlar ekilgan. Turli xil tabiiy-geografik va iqlim sharoitiga ega hududlar o'zlariga mos bog'dorchilik turlari bilan shug'ullanishgan. Masalan, Sariosiyo, Denov, Oltinsoy va Boysun tumanlarining tog'li mintaqalarida istiqomat qiluvchi aholi danakli meva daraxtlari, ayniqsa, o'rik, anor, jiyda va shaftolini ko'proq ekishgan. Shuningdek, o'rik bargagi va kishmishning oliy navlarini tayyorlashgan[6].

Mintaqa iqlimiga moslashgan anor, bodom, xurmo, behi, jiyda, do'lana, yong'oq, pista, uzum, olma, limon va mandarin ko'p ekilib, ulardan ko'p hosil olinadi. Ayniqsa, vohaning nisbatan yumshoq iqlimiy sharoitga ega bo'lgan shimoliy hududlarida subtropik va sitrus mevalari ko'p ekiladi va ulardan tizimli ravishda yuqori hosil olinadi. Bobotog' hududi pistaga kon hisoblanadi. Sariosiyo, Uzun, Denov, Termiz hamda Sherobod tumanlarida anor va xurmo nihoyatda ko'p ekilgan.[7]

Vohaning tog'li hududlarida ham aholi uzumchilik bilan shug'ullanib, uzum yetishtirish bo'yicha o'ziga xos tajribaga ega bo'lishgan. Uzun keng tovarlilik xususiyatiga

ega bo'lib, Surxon vohasining asosan, tog'oldi qishloqlarida yashovchi aholi ushbu soha bilan shug'ullanishgan[8]. Hisor tog' etaklaridagi Boysun tumanidagi Pasurxi[9], Sherobod tumanidagi Qorabog', Zarabog' va Novbog' qishloqlari qadimdan uzumchilikning markazi sifatida mashhur bo'lgan. Ushbu mintaqalarda uzumchilik asosan, tog' yonbag'irlari tik bo'lganligi uchun uzumzorlar terrasalar (pog'anasimon maydonlar) shaklida tashkil etilgan. Bunda tuproq yemirilishining oldi olinadi va yomg'ir va qor suvlari samarali ushlab qolinadi. Bu yerlarning barchasida asosiy suv manbai kichik-kichik daryo va soylar edi, ular yoz oylarida qurib qolgan. Shunga qaramay, uzumzorlar qishki sug'orish va bahordagi bir marta sug'orish evaziga yaxshi hosil bergan[9].

Qadimdan voha aholisi bog' yaratishda tuproqning hosildorligiga alohida e'tibor berishgan. Daraxtlarni ekishdan avval bog' uchun maxsus hosildor joy tanlashgan. Vohalik bog'bonlar bog' uchun joy tanlashda yomg'irdan keyin yerning yorilmasligiga, yerda turli xil giyohlarning o'sishiga, tuproqning rangiga, namlikning qancha muddat saqlanib qolishiga, nam tuproqni qo'l bilan

siqqanda yumaloq bo'lishi kabi bir qator jihatlarga e'tibor berishgan.

Bog'bonlar bog'ni yaratishda ko'chatlarni asosan, kuzgi mavsumda, birinchi yomg'ir yog'andan keyin ekishgan. Daraxtlarni ko'chirish esa qish faslida, sovuq tushgan vaqtda ko'chirib o'tkazilgan. Kuz vaqtida ekilgan daraxt ko'chatlarining kichik va katta tomirlari ko'p bo'lgan. Daraxtlarni mevasi ko'p bo'lishi hamda me'yordan ortiq o'sib ketmasligi uchun ko'chatlar kunduz kuni ekilgan. Oy yorug'ida yoki yangi oy chiqqan vaqtda ekilgan daraxtlarning mevasi kam bo'lib, bo'yi o'sib ketgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Surxon vohasi aholisining an'anaviy xo'jaligida bog'dorchilikning o'ni beqiyos hisoblanadi. Voha aholisi daraxt ekishga, turli xildagi bir-biridan shirin mevalarni aholi dasturxoniga yetkazib berishga hamda o'zidan yaxshi bir bog' qoldirishga intilib yashaydi. Voha bog'bonlarining tarixiy tajribasi hamda zamonaviy agrotexnologiyalarni o'zaro integratsiya qilgan holda intensiv bog'lar yaratish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. Тошкент, Ўқитувчи. 1994. – Б. 89.
2. Қабулов Э. XVIII асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Сурхон воҳаси хўжалиги. Тарих фанлари доктори дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 97.
3. Ханьков Н. Описание Бухарского ханства. – Санкт-Петербург : тип. Имп. Акад. наук, 184-. – С. 120-121.
4. Турсунов С., Қабулов Э., Пардаев Т. ва бошқ. Сурхондарё тарих кўзгусида. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 159.
5. Исаев О. Сурхон воҳасидаги ижтимоий-иқтисодий жараёнлар (1925-1941 йй.). Монография. – Термез: КИТОБ НАШР, 2022. – Б. 8.
6. Эшқурбонов С. Ўзбек халқи хўжалик ҳаётида деҳқончилик: анъаналар ва замонавийлик (Сурхон воҳаси мисолида). Монография. – Тошкент: Innovatsiya-ziyo, 2023. – Б. 70.
7. Хидоятов И.О. О характере сельского хозяйства многонациональных районов Сурхандарьинской области в дореволюционное время // СЭ.1970.№ 2. – С. 133.
8. Кармышева Б.Х. О торговле в восточных бекствах Бухарского ханства в начале XX в. связи с хозяйственной специализацией // Товарно-денежные отношения на Ближнем и Среднем Востоке в эпоху средневековья. – С. 119.
9. Қабулов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги. Монография. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 169.